

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



**2021 йил махсус сон**



**Бош муҳаррир:** Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

**Масъул муҳаррир:** Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Қодирхонов

**Масъул муҳаррир ўринбосари:** Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Р.Жалалов

### ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

**Физика-математика фанлари:** акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

**Кимё фанлари:** акад.С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

**Биология фанлари:** акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.д. Н.Абдурахмонов.

**Техника фанлари:** - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

**Қишлоқ хўжалиги фанлари:** – г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

**Тарих фанлари:** – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д, проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

**Иқтисодиёт фанлари:** – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

**Фалсафа фанлари:** –ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

**Филология фанлари:** – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н, доц.М. Сулаймонов.

**География фанлари:** - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д доц К.Боймирзаев

**Педагогика фанлари:** - п.ф.д., проф. У.Иноятгов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, п.ф.д., проф Ў.Асқарова, п.ф.н., доц. М.Нишонов, PhD П.Лутфуллаев.

**Тиббиёт фанлари:** – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

**Психология фанлари** – п.ф.д.,проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

**Техник муҳаррир:** [Н.Юсупов](#)

**Таҳририят манзили:** Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.

**Тел:** (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** [ilmiy@inbox.uz](mailto:ilmiy@inbox.uz)

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатида киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 27.10.2021 йилдаги кенгайтирилган йиғилишида муҳокама қилиниб, илмий тўплам сифатида чоп этишга рухсат этилган (**Баённома № 13**). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.



## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING HARAKAT MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING O'RNI**

Ismoilov G'anisher, NamDU o'qituvchisi

***Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat malakalarini rivojlantirish va ularning sog'lig'ini mustahkamlashda milliy harakatli o'yinlarning o'rni hamda ahamiyati o'z aksini topgan.*

***Kalit so'zlar:** harakatli o'yinlar, jismoniy rivojlanish, harakat malakasi, o'yin faoliyati.*

## **РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ПОДВИЖНЫХ ИГР В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ**

Исмоилов Ганишер, учитель НамГУ

***Аннотация:** в данной статье отражены роль и значение национальных подвижных игр в развитии двигательных навыков учащихся начальной школы, так же и укрепления их здоровья.*

***Ключевая слова:** подвижные игры, физическое развитие, навыков движения, игровая деятельность.*

## **THE ROLE OF NATIONAL MOBILE GAMES IN DEVELOPING THE SKILLS OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS**

Ismoilov G'anisher, teacher of NamSU

***Annotation:** this article reflects the role and importance of national mobile games in the development of movement skills of primary school students and their health.*

***Key words:** moving games, physical readiness, game activities, skill in action.*

Mamlakatimizda mustaqillikka erishilgandan keyin respublikamiz rahbariyati tamonidan o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom qilib tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Respublikamiz aholisini salomatligini mustahkamlashda jismoniy tarbiya va sportni o'rni kattadir. Bu boradagi ishlarni amalga oshirishda «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonun, «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror va "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmon muhim ahamiyatga ega bo'ldi [1;2;3].

Bir necha asrlardan buyon yosh avlodni salomatligini mustahkamlashda jismoniy tarbiya vositalari katta ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

Insoniyat taraqqiyoti va ijtimoiy hayotining turli davrlarida o'yinlar muhim o'rinni egallab kelgan. O'yinlar yordamida insoniyat o'sgan, ulg'aygan, chiniqqan, jismonan baquvvat bo'lgan, aqlan, ruhan rivojlangan, ma'naviy kamol topgan.

Insonlarning barcha tabiiy harakatlari umumrivojlantiruvchi va maxsus mashqlar hamda harakatli o'yinlar orqali tarbiyalanadi, ularning rivojlanishi va takomillashishida xizmat qiladi. Ayniqsa, yosh bolalar bilan o'ynaladigan milliy harakatli o'yinlar ularning jismoniy sifatlarni shakllantirishning muhim vositasi bo'lib hisoblanadi.

Harakatli o'yinlar o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog'lom, aqlan yetuk va har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Shu boisdan



ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya dasturida harakatli o'yinlar asosiy o'rinni egallaydi[4].

Milliy va harakatli o'yinlar yosh avlodni sog'lom qilib tarbiyalashda va ta'lim-tarbiya jarayonida muhim o'rinni egallaydi, bolalarning harakat sifatlarini rivojlantirish, jismoniy tayyorgarligini oshirish hamda salomatligini mustahkamlashga ijobiy ta'sir etadi[5].

Boshlang'ich sinflarda milliy harakatli o'yinlar o'tkazish eng qiziqarli tadbirlardan biri bo'lib, organizmning tashqi muhit va har xil ta'sirlarga chiniqishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Milliy harakatli o'yinlar o'quvchilarning organizmini chiniqtirish bilan birga do'stlik, o'zaro yordam, tashkilotchilik, intizom, ma'suliyat burchini his qilish, rostgo'ylik va javobgarlik kabi fazilatlarni shakllantiradi[6].

Milliy harakatli o'yinlar bolalar va o'smirlarni har tamonlama tarbiyalashda, ularning komil inson bo'lib voyaga yetishishlarida jismoniy tarbiyaning eng asosiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi.

O'yin boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun shunday bosqichki, bunda ular yangi bilim va tushunchalarni egallashga qaratilgan mustaqil faoliyatni boshlaydilar. Bolalar maktab tajriba uchastkasida ishlash va uyda foydali mehnat qilishdan tashqari, bo'sh vaqtlarining bir qismini turli o'yin va ermaklarga sarflaydilar. Bunday o'yinlar ularga organizmning kunlik harakatga bo'lgan ehtiyojini qondirish va yaxshi dam olish imkonini beradi. Milliy harakatli o'yinlar bola harakatlarini o'stirish va takomillashtirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan yurish, yugurish, sakrash, biror narsani irg'itish yoki uloqtirish, biror narsaga tirmashib chiqish kabi mashqlarni o'z ichiga oladi. Harakatlarning takomillashishi bilan birga, jismoniy qobiliyat ham taraqqiy etadi, yurak va nafas olish tizimining faoliyati yaxshilanadi.

Boshlang'ich sinflar 7-10 yoshlarni tashkil qiladi va biologik nuqtai -nazardan bola organizmining eng harakatchan davrini o'z ichiga oladi. Shunday ekan bir soatlik dars mobaynida ularning diqqatini faqat darsga qaratish noto'g'ri albatta. Mana shunday hollarda harakatli o'yinlar yordamida ularni chalg'itish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari jismoniy tarbiya daqiqalarida, katta tanaffuslarda, kuni uzaytirilgan guruhlarda va sayrlarda o'ynaladigan milliy harakatli o'yinlar bolalarning aqliy mehnatga layoqatini oshirib, ulardagi charchoq holatini oldini olishga ham yordam beradi.

Bolalarni o'yin faoliyatida ikkita bir-biri bilan bog'langan juda muhim mezonlar mavjud: bir tomondan bolalar amaliy faoliyatga kirishib jismoniy jihatdan rivojlanishadi, mustaqil harakat qilishga odatlanadilar. Ikkinchi tomondan- shu orqali ma'naviy ozuqa olishadi, tevarak atrofdagi muhitni chuqurroq o'rganishga kirishadilar.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, boshlang'ich sinflarda harakatli o'yinlarni darsning mavzusiga mos tarzda tanlash lozim. Dars jarayonida o'yinlarni ko'p takrorlash, ya'ni bir xil mazmundagi o'yinlarni muntazam o'ynatish bolalarning zerikishiga olib keladi. Natijada o'quvchilarda charchoq va diqqatning bo'linishi kabi salbiy holatlar kuzatiladi. Bunday holatlarni oldini olishda bolalarning pedagogik xususiyatlarini xisobga olgan xolda harakatli o'yinlarni turli xil variantlarida o'tkazish orqali dars jarayonida xilma-xil harakatli o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan jismoniy tarbiya darslarida va o'quv kun tartibidagi jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish tadbirlari jarayonida bolalarning pedagogik xususiyatlarini xisobga olgan xolda milliy va harakatli o'yinlardan samarali foydalanish ularning harakat malakasi va ko'nikmasini





shakllantiradi, jismoniy tayyorgarligini mustahkamlaydi hamda organizmni kunlik xarakterga bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'uxati**

1. Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонуни (2015. 04.09). Халқ сўзи. – Тошкент, 2015. 5 сентябр.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. – Тошкент: “Адолат”, 2017. -112 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори (2017. 3 июн). Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами № 23. – Тошкент, 2017. 12 июн.
4. Исмоилов Т.У. Бошланғич синфларда жисмоний тарбия-соғломлаштириш тадбирларининг педагогик хусусиятлари. Дис. ... пед.фан.ном. – Тошкент: 2010. -157 б.
5. Салимов Ғ.М. Миллий ҳаракатли ўйинлар асосида 7-10 ёшли ўқувчиларнинг жисмоний сифатларини ривожлантириш самарадорлиги. Дисс. ... пед.фан.ном. – Тошкент: 2007. -146 б.
6. Usmonho'jayev T.S. Milliy va harakatli o'yinlar. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2015. -268 б.

### **ABITURIYENTLARNING TIL TA'LIMIDAN MORFEMIKANI O'ZLASHTIRISHINING BESH XIL METODI**

Isaqova Gulzoda Anvarjon qizi

Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi Tel:+998997914055

***Annotatsiya:** mazkur maqolada, nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning ona tili ta'limidan morfemika bo'limini o'zlashtirish metodlari tahlil qilinadi. Metodlarning qo'llanilish maqsadi, sababi va afzalliklari yoritib beriladi.*

***Kalit so'zlar:** morfema, so'z yasalishi, affiks, morfemik tahlil*

### **MORPHEMES FROM THE LANGUAGE EDUCATION OF ENTRANTS**

Isakova Gulzoda Anvarjon qizi

Independent researcher of Namangan State University Tel:+998997914055

***Annotation:** This article analyzes the methods of mastering the morphemes section of the native language education of students studying in non-governmental educational institutions. The purpose, reasons and advantages of the methods are explained.*

***Key words:** morpheme, word formation, affix, the analysis of morphemic*

### **МОРФЕМЫ ЯЗЫКОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ АБИТУРИЕНТОВ**

Исакова Гулзода Анваржон кизи

Независимый научный сотрудник Наманганского государственного университета  
Тел:+998997914055



91	<b>Yuqori malakali futbolchi xotin-qizlarni mashg'ulotlar uchun yuklamalarni rejalashtirish.</b>	
	Nodirov B.H. ....	443
92	<b>Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlasgda steam tizimini samaradorligi.</b>	
	Xolmatova S.V. ....	446
93	<b>Chet til darslarida hamkorlik ta'limi</b>	
	Shamshitdinov U.Z. ....	451
94	<b>Creating tasks for developing learners' critical thinking in english classes</b>	
	Yuldasheva D.Q. ....	454
95	<b>Организация изобразительной деятельности детей дошкольного возраста</b>	
	Худайкулова Д.З. ....	458
96	<b>Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ salohiyatini yuksaltirishda olib boriladigan ishlar</b>	
	Karimova D.M., Nuraliyeva K.I. ....	464
97	<b>Boshlang'ich sinflarda mumtoz adabiyot o'qitishning badiiy-estetik va ilmiy-pedagogik asoslari</b>	
	Jo'rayeva D. ....	469
98	<b>Boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat malakalarini rivojlantirishda milliy harakatli o'yinlarning o'rni</b>	
	Ismoilov G'. ....	474
99	<b>Abituriyentlarning til ta'limidan morfemikani o'zlashtirishining besh xil metodi</b>	
	Isaqova G.A. ....	476
100	<b>An'anaviy va no'anaviy dars mashg'ulotlari, uning afzallik va kamchiliklari</b>	
	Ibroximov M.A., Rustamova Z.F. ....	480
101	<b>CEFR va унинг давлат таълим стандартлари билан муофיקлиги</b>	
	Икромова М.Д. ....	485
102	<b>Umumta'lim maktabi o'quvchilarini sport to'garaklariga tanlab olish va yo'naltirish</b>	
	Boltabayev Sh.O. ....	495
103	<b>Umumta'lim maktablarida katta tanafuslardagi o'yinlarni o'quvchilar harakat faolligini rivojlanishidagi roli</b>	
	Jiyanov O.M., Sultonov B.S. ....	498
104	<b>Umumta'lim maktablaridagi jismoniy tarbiya darslarida milliy harakatli o'yinlarning tutgan o'rni va ahamiyati</b>	
	Mahmudjonov A.A., Nabijonova M.M. ....	503
105	<b>Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u Lug'atit Turk" asarini innavatsion texnologiyalar asosida o'rganish.</b>	
	Qo'chqarov B.A. ....	508
106	<b>Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda kitob bilan ishlash malakasini rivojlantirish usullari.</b>	
	Ismailova N.I. ....	513
107	<b>Texnologiya darslarida o'quvchilarga zamonaviy kasblar haqida tushuncha berish va qiziqtitirish omillari.</b>	
	Muxitdinova J.R., Turg'unpulatova M. ....	517